

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ МАСАЛАСИ ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Normurodov D. R.

«Arxeologiya va etnologiya» kafedrası dotsenti, PhD.

O'zbekiston Milliy universiteti

d.r.normurodov@mail.ru

KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Kitob tumanidagi Sanganak (Makrid) soy havzasida olib borilgan yangi arxeologik qidiruv ishlari natijalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida so'nggi antik va il o'rta asrlarga oid yangi Sayyodtepa-1, Sayyodtepa yodgorliklari va toshga chizilgan rasm topilgan, shuningdek, avvalgi tadqiqotlarda aniqlangan yodgorliklardan yangi sopol buyumlari, tegirmontoshlar, qabrtosh aniqlangan. Aniqlangan yodgorliklarning joylashuvi, davriy mansubligi va funksional xususiyatlari hududning uzoq tarixiy jarayonda uzluksiz o'zlashtirilganini ko'rsatadi. Maqola Sanganaksoy havzasining arxeologik xaritasini kengaytirish va mintaqaning tarixiy-madaniy taraqqiyot bosqichlarini qayta tiklashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, Kesh, Sanganaksoy, Makrid, Sayyodtepa, arxeologik yodgorlik, sopol buyum, qabrtosh, tegirmontosh.

KIRISH

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani hududidagi Sanganak (Makrid) soy havzasi tabiiy-geografik jihatdan o'tmishda inson faoliyati uchun qulay bo'lgan hududlardan biridir. Mazkur hududda joylashgan qadimiy yodgorliklar, tuproq qatlamlari, manzilgoh izlari va xo'jalik faoliyatiga oid belgilarning arxeologik jihatdan o'rganilishi vohaning eng qadimgi iqtisodiy-madaniy taraqqiyot bosqichlarini tiklashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zMU Tarix fakulteti qoshida t.f.d., akademik A.Sagdullayev rahbarligida amalga oshirilayotgan FL-95424115102-R2-sonli "Janubiy O'zbekiston arxeologiya merosini o'rganish va yodgorliklarni muzeylashtirish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida 2025-yilning 24-oktyabridan – 2-noyabriga qadar hududda amalga oshirilgan qidiruv ishlarida bir qator ilgari noma'lum bo'lgan yodgorliklarni aniqlash, ularning davriy mansubligi va funksional xususiyatlarini aniqlashtirish imkonini berdi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Zarafshon tog' tizmasining g'arbiy qismi bo'lgan Qoratepa tog'idan kelib qo'shiladigan bir necha soy suvlaridan hosil bo'lgan Sanganaksoy Qashqadaryoning o'ng sohil irmog'i bo'lib, u ayrim ilmiy tadqiqot ishlari va xaritalarda Qoratosh-Chashma va Makridsoy kabi nomlar bilan ham qayd qilingan [1; 8; 9]. uning suv to'planadigan soylaridan Qashqadaryoga quyilgungacha bo'lgan hamzasida (47,5 km.kv.) arxeologik tadqiqot ishlari XX asrning 50-yillaridan buyon olib borilmoqda. Jumladan, havzadagi arxeologik yodgorliklarni

qayd qilish va qazishma ishlarini olib borish ishlarini S.K.Kabanov boshlab bergan. U havzaning yuqori oqimidagi Oynanatepa, Xasantepa, Chillamozor, oʻrta oqimidagi Qoʻrgʻontepa, Toʻrtkoʻltpa, Hovuztepa kabi yodgorliklarni aniqlagan va Havuztepada arxeologik qazishma ishlari olib borgan [1]. 1963-yilda M.Ye.Massonning tashabbusi bilan ToshDU “Oʻrta Osiyo arxeologiyasi” (hozirgi OʻzMU “Arxeologiya va etnologiya”) kafedrasida qoshida tashkil qilingan “Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi (KATE)” ning tashkil qilinishi Qashqadaryo vohasining yuqori va oʻrta oqimidagi, jumladan Sanganaksoy havzasidagi yodgorliklari oʻrganish ishlari muntazam amalga oshirilib kelgan. Havzani tadqiq qilish ishlariga bu ekspeditsiya aʼzosi – N.I.Krashennikova rahbarligida amalga oshirilgan [3].

Oʻzbekiston Mustaqilligidan soʻng arxeologik yodgorliklarni tekshirish va ularni “Oʻzbekiston arxeologik yodgorliklari katalogi” ga kiritish maqsadida OʻzR FA Arxeologiya instituti xodimlari Sanganaksoy havzasida ham tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu tadqiqotlar natijasi havzadagi 36 ta yodgorliklar katalogga kiritildi [6]. Oʻzbekistondagi arxeologik yodgorliklarining buzilishi va yoʻq boʻlib ketishini oldini olish maqsadida 2019-yil Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 846 qarori qabul qilindi va “Moddiy madaniy merosning koʻchmas mulk obyektlari milliy roʻyxati” tuzildi. Bu roʻyxatga Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi 281 ta arxeologik yodgorliklardan 23 tasi Sanganaksoy havzasida joylashganligi qayd qilingan [7].

2025-yildagi Sanganaksoy havzasida oʻtkazilgan arxeologik qidiruv ishlarida ikkita yangi: Sayyottepa-1, Sayyodtepa qishloq xarobalari va bitta joyda toshga chizilgan rasm qayd qilindi. Shuningdek, avvalgi tadqiqotlarda oʻrganilgan Qorovultepa-1, Chillamozor (Chillamozortepa), Oynalitepa, Hasantepa, Qoʻshazor, Fotimaotatepa, Kattakoʻllitepa kabi yodgorliklarida tekshiruv ishlari olib borildi. Yangi aniqlangan va tekshiruv ishlari oʻtkazilgan bu tadqiqotlarda qoʻlga kiritilgan natijalar quyidagicha tavsifga ega:

Sayyodtepa-1 (Nomsiz tepa-1) Sanganaksoy (Makridsoy) ning yuqori oqimida, soyningchap sohilida, mavsumda suvi shimoldan janubga oqib Makridsoyga chapdan kelib qoʻshiladigan “nomsizsoy”ning oʻng sohilidagi tabiiy tepalik ustida joylashgan. “Google Earth” dasturidagi koordinatasi – 39°15′11.47", 66°51′31.26". U shimoli-sharqdan janubi-gʻarbga tomon choʻzilgan tabiiy tepalik ustida joylashgan (1-rasm). Tepalikning ustki maydoni – 90x20 m. Uning shimoli-sharqiy burchagidagi baland qismi janubi-sharqiy qismining tekisroq maydondan 2 m baland. Tepalikning atrofida sirsiz va sirli sopol parchalari, metall eritishdan hosil boʻlgan toshqollar (shlak) uchraydi. Bu hududda toshqollarning uchrashiga qaraganda yodgorlik atrofida metallsozlik xom ashyolariga eritib olinganligini aytish mumkin. Yodgorlikni tekshirish ishlarida uning turli joylari belkurakda qazib tashlanganligining guvohi boʻlindi. Aftidan, bu ishlar “qimmatbaho metall izlovchilar” tomonidan amalga oshirilgan koʻrinadi. Qazishma ishlari olib borilmaganligi sababli yodgorlikning qaysi davrga oidligini aytish qiyin. Uning sirtida uchratilgan sopol buyumlar ham ahamiyati juda rast boʻlgan boʻlaklardan iborat.

Sayyodtepa Sanganaksoyning yuqori oqimida, daryoning o'ng sohilidagi tabiiy tepalik ustida joylashgan. "Google Earth" dasturidagi koordinatasi – 39°15'0.49"; 66°51'18.31". Yodgorlik tabiiy tepalikning tuproqlari qazib olinishi natijasida barpo qilingan. Uning umumiy maydoni – 1, 50 ga. Yodgorlikning o'ng va chap tomonlaridan suvi shimoldan janubga oqadigan soylar o'tgan. Shimol tomoni tabiiy balandliklar va janubi yodgorlik sathidan pastroq tepalik hududlarga tutashib ketgan (2–3-rasmlar). U 4 qismdan iborat. Ark xarobasi balandligi – 20 m, o'lchamlari – 23x22 m bo'lgan tepalikda o'rnashgan bo'lib, uning ustki tekis maydoni noto'g'ri to'rtburchak shaklda. Arkning atrofi eni – 10 m keladigan chuqurligi 10-15 m keladigan xandaq bilan o'ralgan. Arkni janubi-sharq, janub va g'arbdan yarim oy shaklidagi aholi turar joylari o'rab olgan. Arkdan shimoli-sharqda yana bir doira shakldagi baland (balandligi – 15-18 m) tepalik o'rnashgan. Yodgorlik atrofida sirsiz sopol parchalari uchraydi. Bunday ashyolar uning xandaq qismida ko'proq ko'zga tashlanadi (4-rasm). Shuningdek, xandaqda bir qancha qo'lda aylantiriladigan tegirmon toshlari ham bo'lib, ulardan uch dona doira shakldagisi diqqatni tortadi. Sinib yarim doira shakliga kelib qolgan bu tegirmon toshlaridan birining diametri – 27 sm.ni, qalinligi – 8-10 sm.ni, o'rtadagi teshigining diametri – 4 sm.ni (5:1-rasm) ikkinchisining diametri – 25 sm.ni, o'rtadagi teshigining diametri – 4 sm.ni, qalinligi – 7-9 sm.ni (5:2-rasm), uchinchi – eng kichigining diametri – 10 sm.ni, o'rtadagi teshigining diametri – 4 sm.ni, qalinligi – 5 sm.ni tashkil qiladi (5:3-rasm). Tegirmon toshlarining uchrashi ushbu yodgorlik aholisining donli mahsulotlarni, xususan bug'doy va arpani kabi dehqonchilik mahsulotlarining unga aylantirib undan oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlaganliklaridan, dehqonchilikda ushbu turdagi ekinlar yetishtirilganligidan dalolat beradi. Yodgorlik joylagan hududning landshaft tuzilishidan kelib chiqib, bu dehqonlilik lalmi yerlarda yetishtirilganligini aytish mumkin.

Sayyodtepadan topilgan sopol buyumlardan xum (4:1–4:2-rasmlar), tuvak (4:3-rasm), ko'za (4:4-rasm) va kosasimon idishlarning og'iz va tag qismlari o'rganish uchun olindi. Xum og'iz bo'laklari ikki dona. Ulardan biri qo'lda yasalgan qalin devorli katta xumga tegishli bo'lib, og'zi ichkariga bir tekisda aylanib kirgan, og'zidan tashqarisi, labining biroz pastrog'i aylanasiqa halqasimon botiq bezak chizilgan, tashqi tomoni och qaymoq rangda angoblangan (4:1-rasm). Bunday xumlarning namunalari Kitob tumanidagi antik davriga oid ko'plab yodgorliklardan topib o'rganilgan bo'lib, ular miloddan oldingi II asrdan – milodiy V asrning boshlarigacha bo'lgan davrga oid hisoblanadi [5]. Sayyodtepadan topilgan kosasimon idishlarga ham tadqiqotlarda aniqlangan bo'lib, ular ham xuddi shu davrlar bilan davrlashtirilgan [2].

Toshga chizilgan rasm Sanganaksoyning yuqori oqimida, soydan 30 m chapda joylashgan [10]. "Google Earth" dasturidagi koordinatasi – 39°14'31.37", 66°49'12.93". Yuzasi janubi-sharq tomonga qaragan, eng – 1,40 m, bo'yi – 1,70 m bo'lgan xarsang toshda bir dona tog' echki (taka) sining chap yoni tomonidan ko'rinishi aks ettirilgan (6-rasm). Bu tog' echkisining boshi shimol tomonga qaratilgan bo'lib, uning old va orqa oyoqlari juftlashgan holatda 15 sm.lik hajmda cho'kkilash yo'li bilan chizilgan. Uning uzun shoxlari orqaga qayrilgan.

Qorovultepa-1 Sanganaksoyning yuqori oqimi o'ng sohilida, soydan 400 m uzoqlikda, Hasantepa qishlog'ining adir qismidagi tabiiy tepalik ustida joylashgan. "Google Earth" dasturidagi koordinatasi: 39°14'36.9"; 66°48'58.9". Qorovultepa-1 balandligi – 10 m.ni tashkil qiladigan, shimol tomonga biroz cho'zilgan, o'lchamlari – 80x130 m.ni, maydoni - 1,04 ga.ni, tepalikdan iborat (7-rasm). Yodgorlik ToshDU "O'rta Osiyo arxeologiyasi" (hozirgi O'zMU "Arxeologiya va etnologiya") kafedrasining KATE, 2000-yilda O'zR FA Arxeologiya institutining O'zbek-Amerika qo'shma ekspeditsiyasi, 2014-yilda O'zR FA Arxeologiya institutining Kesh otryadi ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan o'rganilgan va ilk asrlarga (V–VI) oid qishloq xarobasi ekanligi qayd qilingan [6]. Yodgorlik 2019-yilda "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati"ga kiritilgan [7]. 2025 yilgi tekshirish ishlarida yodgorlikning g'arb tomonida "yorg'inchoqtosh"ning bo'lagi uchratildi (7-rasm).

Chillamozor (Chillamozortepa) Sanganaksoyning yuqori oqimida, unga o'ngdan qo'shiladigan nomsiz soyning o'ng sohilida, Hasantepa qishlog'i hududidagi tabiiy tepalik ustida joylashgan. "Google Earth" dasturidagi koordinatasi: 39°15'08.8"; 66°49'15.4". Chillamozorning aylana shakldagi xandaq bilan o'ralgan markaziy qismining balandligi – 15 m.ni, maydoni - 0,2 ga.ni tashkil qiladi (8-rasm). Bu tepalikka turli tomonlardan maydonlar tutashgan. Uning janub va sharqi nomsiz soy bilan, shimol va g'arbi yo'l bilan chegaralangan. Yodgorlik ilk bor S.K.Kabanov tomonidan aniqlangan [1], keyinchalik ToshDUning "O'rta Osiyo arxeologiyasi" kafedrasining KATE tomonidan, 2000-yilda O'zR FA Arxeologiya instituti va AQSH olimlari ishtirokidagi O'zbek–Amerika qo'shma ekspeditsiyasi, 2014-yilda esa Samarqand arxeologiya institutining Kesh arxeologik otryadi yodgorlikda kuzatuv ishlarini amalga oshirgan [6]. Olingan materiallar asosida Chillamozortepa antik davrga, ya'ni milodiy II–IV asrlarda mavjud bo'lgan qishloq xarobasi ekanligi aniqlangan. 2019-yilda yodgorlik "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati"ga kiritilgan [7]. 2025-yilda obyektدا navbatdagi arxeologik kuzatuv ishlari amalga oshirilib, uning koordinatasi olindi, holati tekshirildi va rasmga tushirildi.

Oynalitepa (Oynaliktepa, Oynanitepa) Sanganaksoyning yuqori oqimida, unga o'ngdan qo'shiladigan "nomsizsoy"ning chap sohilida, Chillamozortepadan janubda, Hasantepa qishlog'i hududidagi tabiiy tepalik ustida joylashgan. "Google Earth" dasturidagi koordinatasi: 39°15'08.8"; 66°49'15.4". Yodgorlikning balandligi – 8 m, maydoni 1,28 ga. U janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa tomon biroz cho'zilgan (9-rasm). Ikki qismdan iborat bu tepalikning janubi-sharqiy qismini ustki maydoni – 30x10 m, shimoli-sharqdagi qismining ustki maydoni – 100x40 m. Oynalitepa ilk bor S.K.Kabanov tomonidan aniqlangan [1], keyinchalik ToshDU "O'rta Osiyo arxeologiyasi" kafedrasining KATE tomonidan [4], 2000-yilda O'zR FA Arxeologiya institutining O'zbek–Amerika qo'shma ekspeditsiyasi, 2014-yilda esa Arxeologiya institutining Kesh otryadi kuzatuv ishlarini amalga oshirgan, tarh-rejasi (9-rasm) chizib olingan [6], 2019-yilda obyekt "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati"ga olingan [7]. Oynaliktepadagi 2025-yildagi tekshiruv ishlari paytida tepalik yuzasida sirlangan va sirsiz sopol idish parchalari uchratildi (10-rasm). Bu sopol buyumlari Kesh

vohasidan aniqlangan III–VII va IX–XII asrlarga oid sopol idishlariga o‘xshash. Shundan kelib chiqib, Oynaliktepaning III–XII asrlarda faoliyatda bo‘lgan qishloq ekanligini aytish mumkin. Shu o‘rinda qayd qilish kerakki, Oynaliktepaning KATE a‘zolari va Samarqand arxeologiya instituti xodimlari tomonidan chizib olingan tarhi-rejasida farq ko‘zga tashlanadi. Yangi tekshiruv ishlari KATE tomonidan chizilgan tarh-reja chizmasi to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi.

Hasantepa Sanganaksoyning yuqori oqimida, Chillamozortepadan shimoli-g‘arbda, Hasantepa qishlog‘idagi tabiiy tepalik ustida joylashgan. “Google Earth” dasturidagi koordinatasi: 39°15’12.9”; 66°49’04.5”. Hasantepa ilk bor S.K.Kabanov tomonidan aniqlangan [1], keyinchalik ToshDU “O‘rta Osiyo arxeologiyasi” kafedrasining KATE tekshirilgan va uning tarh-rejasi chizib olingan, 2000-yilda O‘zR FA Arxeologiya institutining O‘zbek–Amerika qo‘shma ekspeditsiyasi, 2014-yilda esa Arxeologiya institutining Kesh otryadi tomonidan tekshirilgan va tarh-rejasi chizib olingan [6]. Hasantepa 2019-yilda “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxati”ga olingan. Ammo ro‘yxatdan uning o‘rnashgan joyi “Oyoqchi” MFY hududidaligi xato ko‘rsatilgan [7]. 2025-yildagi qidiruv ishlarida yodgorlik rasmga olindi, koordinatasi aniqlandi. Yodgorlik balandligi – 14 m, maydoni – 0,6 ga bo‘lgan tepalik va unga turli tomondan tutashgan mustahkamlanmagan – ochiq maydonlar tutashadi. U ilk asrlar (VI–VIII asrlar) davriga oid qishloq xarobasi hisoblanadi [6]. Qayd qilish kerakki, Hasantepaning KATE a‘zolari va Samarqand arxeologiya instituti xodimlari tomonidan chizib olingan tarhi-rejasida ham farq ko‘zga tashlanadi (11-rasm). Bu chizmadan ham KATE tomonidan chizilgan tarh-reja chizmasi to‘g‘ri chizib olingan.

Qo‘shazor Sanganaksoyning chap sohilida joylashgan Makrid MFYda joylashgan (12-rasm). Koordinatasi: 39°13’29.6"N 66°45’32.9"E. U dastlab ToshDU “O‘rta Osiyo arxeologiyasi” kafedrasining KATE, 2000-yilda O‘zR FA Arxeologiya institutining O‘zbek–Amerika qo‘shma ekspeditsiyasi, 2014-yilda Samarqand arxeologiya institutining Kesh otryadi ekspeditsiyasi tomonidan tekshirilgan [6]. Qo‘shazor balandligi – 4 m, maydoni 2 ga, o‘lchami – 200x100 m bo‘lgan tabiiy tepalikda joylashgan ilk asr (V–VI asr) larga oid qishloq xarobasi hisoblanadi. u ikki bo‘lakdan iborat, shimol tomonga cho‘zilib ketgan. Uni sharq va janub tomonidan avtomobil yo‘li, g‘arb va shimol tomonidan Kengsoy o‘rab turadi. Balandligi – 4 m, o‘lchami – 200x100 metrga teng. Sharqiy tomoni yo‘l qurilishi natijasida buzilgan. Shimol va g‘arb tomonini soy suvi yuvib tik jarlik hosil qilgan. Yodgorlik qabristonga aylantirilgan bo‘lib, hozirda undan qabriston sifatida foydalanilmaydi. Qabristondagi qabrlarning ustiga marmardan yo‘nilgan yodgorliktosh (qabrtosh) qo‘yilgan. Bu tosh uyumlarining balandligi – 0.5 m ga boradi. Qabristonda 6 dona marmartoshlardan yo‘nib yasalgan qabrtoshlar saqlangan. Bu qabrtoshlar quyidagicha tavsifga ega:

1) to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lib, uning tag tomoni biroz kengaygan. toshning bo‘yi – 40 sm, enining keng tomoni – 85 sm, qisqa yonining eni – 24 sm.ni tashkil qiladi (13-rasm). Toshning pastki 6 sm balandlikkacha bo‘lgan qismi biroz kengroq. Bu keng joydan tepasidagi biroz toraygan qismi tutashgan joyida ko‘ndalangiga siniq chiziq shaklida bezak berilgan. Qabrtosh keng tomoni bilan

yonbosh holatga yiqilgan. Ko‘rinib turgan keng tomonining tepa qismiga va tor yonining ikkala tomonlarida arab harifida o‘yib yozilgan yozuv bor. Balki, toshning yerga qarab yotgan tomonida ham yozuvi bo‘lishi mumkin. Tosh joyidan qo‘zg‘atilmaganligi uchun uning bu tomonida yozuvi bor yoki yo‘qligini hozircha aniq aytish qiyin. Kelgusi tadqiqotlarda bu masalaga oydinlik kiritishning imkoni bo‘lar;

2) 2-qabrtosh 1-qabrtoshga o‘xshash bo‘lib, uning o‘lchamlari 130x47x32 sm.ni tashkil qiladi;

3) 3-qabrtosh to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lib, u uch pog‘onada tepasiga tomon qisqarib borgan. O‘lchami – 121x46x24 sm;

4) 4-qabrtosh “beshiksimon” shaklda. Uning o‘lchamlari 123x45x32 sm. Qabrtoshning ustki qismiga yozuv yozilgan;

5) 1 va 2- qabrtoshlarga o‘xshash bo‘lib, uning o‘lchami – 97x34x28 sm;

6) to‘g‘rito‘rtburchak shaklda, o‘lchamlari – 127x40x40 sm.

Fotimaotatapa (Formaota qabristoni). “Makrid” MFY, Chimboy (avvalgi Qurama) qishlog‘ida joylashgan. Koordinatasi: 39°13’39.5"N 66°45’21.3"E. Dastlab ToshDU “O‘rta Osiyo arxeologiyasi” kafedrasining KATE [4], 2014-yilda Samarqand arxeologiya institutining Kesh otryadi ekspeditsiyasi tomonidan tekshirilgan, 2019-yilda “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxati”ga kiritilgan [7]. Yodgorlik kvadrat shaklda, markazida eng baland tepaligi joylash, har tomonidan balandligi 2 m.cha keladigan qismlari kesilgani. Yodgorlikning balandligi – 10 m, o‘lchami 200x180 m, maydoni – 3,6 ga. Tepalikdan qabriston sifatida foydalanib kelingan. Hozirda unga marhumlarni dafn etish to‘xtatilgan. Yodgorlik X–XVI asrlarga oid qishloq xarobasi hisoblanadi.

Kattako‘llitepa (To‘rtko‘ltpa) Kitob tumani “Zarafshon” MFY Chirkay qishlog‘ida, Makrid–Oyoqchisoy avtomobil yo‘lining o‘ng yoqasida joylashgan. Dastlab, ToshDU “O‘rta Osiyo arxeologiyasi” kafedrasining KATE va 2014-yilda O‘zR FA Arxeologiya institutining Kesh otryadi ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilgan. Yodgorlikning balandligi – 10 m, umumiy maydoni 4,5 ga.ni tashkil qiladi. Tepalik ustiga uyali telefonlar aloqasini yaxshilashga mo‘ljallangan 2 ta antenna o‘rnatilgan. Tepalikning janub tomoni texnika yordamida tuprog‘i qazib olingan. Tik kesma qismining balandligi – 8 m. tepalik ustidan tegirmontoshining tepa pallasi, pishgan g‘ishtlar (o‘lchami – 24x24x3,5 sm) uchratildi. Tegirmontoshining diametri – 18 sm, teshigining diametri – 4 sm, qalinligi – 8 sm (14-rasm). Yodgorlikning ustki tomonining usti shimoli-g‘arbdan janubi-sharqqa tomon texnikada (surilgan) tekislangan. Surilgan qismining chuqurligi 2 m.ga boradi. Ushbu surilgan joydagi kesmaning 1, 75 m chuqurligida tekis toshli (pol) qatlami bor. Uning ustida pishgan g‘ishtlar (o‘lchami – 24x24x3,5 sm), sirlangan va sirlanmagan sopol parchalari bor.

XULOSA

Sanganaksoy havzasida olib borilgan so‘nggi arxeologik qidiruv ishlari hududning qadimgi va asrlar tarixini yorituvchi yangi yodgorliklar va ashyolar aniqlandi, tadqiqotlarda tarh-rejasi chizimlaridagi chalkashliklarga aniqlik kiritildi. Havzaning antik va il o‘rta asrlarga oid topilmalar vohada inson faoliyatining

ushbu davrdagi jadal o'zlashtirish ishlari kechganligini, bu joyda tarkib topgan madaniy a Markaziy Osiyo dasht va tog' oldi hududlaridagi madaniy jarayonlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Yangi yodgorliklarning aniqlanishi esa bu hududning yuqori qismigacha bo'lgan hududlari uzoq vaqt davomida xo'jalik va transport yo'llari uchun ahamiyatli bo'lganini tasdiqlaydi. Kelgusida Sanganaksoy havzasida tadqiqotlarning davom ettirilishi ushbu hududning to'liq arxeologik xaritasini yaratish va vohaning tarixiy-madaniy jarayonlarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кабанов С. К. Археологические разведки в верхней части долины Кашкадарьи // Труды ИИиА. – Вып. 7. Материалы по археологии Узбекистана. – Ташкент, 1955. – С. 88–97.
2. Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III–VI вв. (по материалам исследования в зоне Чимкурганского водохранилища). – Ташкент: Фан, 1981. – Рис. 61:4; 61:26; 61:32.
3. Крашенинникова Н.И. Работы в Китабе // Археологические открытия 1982 года. – М. 1984. С. 3–11.
4. Материалы к археологической карте Китабский район. 2011. – С. 115–116. (t.f.d. prof. R.X.Suleymonovning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan "hisobot").
5. Омельченко А.В. Культура восточных районов Южного Согда эпохи античности (конец IV в. до н.э. – IV в. н.э. Дис. На соис. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 2003. – С. 375. – Рис. П.6. 67:40 – 67:41; – С. 376. – Рис. П.6. 68:70.
6. Суюнов С.С., Саидов М.М., Сандибоев А.Н. Рахмонов Х. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 5 том. Қашқадарё вилояти. 3-қисм, Китоб тумани. – Самарқанд: ЎзР ФА Археология институти, 2015. 124-138-бетлар.
7. ЎзР ВМ нинг 2019 йил 4 октябрдаги 846-сон қарорига 1-илова “Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари” миллий рўйхати. Қашқадарё вилояти Китоб тумани Археологик ёдгорликлар, № 1164-1444.
8. Шульц В.Л., Машрапов Р. Ўрта Осиё гидрографияси. – Тошкент, 1969. 130-бет.
9. https://retromap.ru/14198944_39.171594,66.745891 (1989. Квадрат J-42 топографических карт 1:100K).
10. Toshga chizilgan rasmni aniqlashda yordam bergan O'zR FA Milliy arxeologiya markazi ilmiy xodimi Oynazarov Xoliyor G'aimnazarovich o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Нормуродов Д. Р.

PhD., доцент кафедры «Археология и этнология»
Национальный университет Узбекистана
d.r.normurodov@mail.ru

ИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ НОВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ В САНГАНАКСКОМ (МАКРИДСКОМ) СОЕВОДСТВЕ КИТАБСКОГО РАЙОНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются результаты новых археологических раскопок, проведенных в бассейне реки Санганак (Макрид) в Китабском районе. В ходе исследований были обнаружены новые памятники Саёдтепа-1, Саёдтепа и рисунки на камне, относящиеся к поздней античности и средневековью, а также новые керамические изделия, обнаруженные в предыдущих полевых исследованиях. Расположение, хронологическая принадлежность и функциональные особенности выявленных памятников свидетельствуют о непрерывном освоении территории в течение длительного исторического процесса. Статья служит расширению археологической карты бассейна реки Санганаксай и воссозданию этапов историко-культурного развития региона.

Ключевые слова: Кашкадарья, Кеш, Санганаксой, Макрид, Сайёдтепа, археологический памятник, керамический предмет, надгробный камень, мельничный камень.

Normurodov D. R.

PhD., associate professor at the department of «Archeology and ethnology»
National university of Uzbekistan
d.r.normurodov@mail.ru

FROM THE RESULTS OF NEW ARCHAEOLOGICAL SURVEYS CARRIED OUT IN THE SANGANAK (MAKRID) SOY BASIN IN THE KITAB DISTRICT

ABSTRACT

This article analyzes the results of new archaeological surveys conducted in the Sanganak (Makrid) stream basin of the Kitab district. During the research, new monuments of Sayyodtepa-1 and Sayyodtepa, dating back to late antiquity and the Middle Ages, and rock paintings were discovered, as well as new ceramic items, millstones, and tombstones from monuments identified in previous studies. The location, periodicity, and functional characteristics of the identified monuments indicate the continuous development of the territory over a long historical period. The article serves to expand the archaeological map of the Sangansansoy basin and reconstruct the stages of historical and cultural development of the region.

Keywords: Kashkadarya, Kesh, Sanganaksoy, Makrid, Sayyodtepa, archaeological monument, ceramic item, gravestone, millstone.


ILOVALAR



1-rasm. Sayyodtepa-1 (Nomsiztepa-1). “Google Earth” dasturidan olingan rasm.




a



б


2-rasm. Sayyodtepa. a) “Google Earth” dasturidan olingan rasm; b) “topographic-map.com” saytidan olingan rasmi.





chizmasi.




5-rasm. Sayyodtepaning xandaq qismida sochilib yotgan qo‘l tegirmon toshlari.





6-rasm. Tog‘ echkisi (taka) rasmi chizilgan tosh va uning “Google Earth” dasturidan olingan nuqtasi.





9-rasm. Oynalitepa (Oynaliktepa, Oynanitepa). a) “Google Earth” dasturidan olingan rasm; b) Oynanitepaning topografik chizmasi. Ushbu chizma t.f.d. prof. R.X.Suleymonovning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan “hisobot”dan olindi (Материалы к археологической карте Китабский район. 2011. – С. 115); в) Ойнанитепанинг тархи чизмаси (С.С.Суюнов, М.М.Саидов, А.Н.Сандибоев, Х.Рахмонов бўйича [Суюнов С.С., Саидов М.М., Сандибоев А.Н. Рахмонов Х. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 5 том. Қашқадарё вилояти. 3-қисм, Китоб тумани. – Самарқанд: ЎзР ФА Археология институти, 2015. 125-бет.]).





10-rasm. Oynalitepa (Oynaliktepa, Oynanitepa)dagi 2025 yilgi tekshirish ishlari paytida topilgan sopol idish parchalari. 1-9 – so‘ngi antik va ilk o‘rta asrlar; 10-11 – X–XII asrlarga oid.



11-rasm. Hasantepa. a) “Google Earth” dasturidan olingan rasm; b) Hasantepaning topografik chizmasi. Ushbu chizma t.f.d. R.X.Suleymonovning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan “hisobot”dan olindi (Материалы к археологической карте Китабский район. 2011. – С. 222); в) Ҳасантепанинг тарҳи чизмаси (С.С.Суюнов, М.М.Саидов, А.Н.Сандибоев, Х.Рахмонов бўйича [Суюнов С.С., Саидов М.М., Сандибоев А.Н. Рахмонов Х. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 5 том. Қашқадарё вилояти. 3-қисм, Китоб тумани. – Самарқанд: ЎзР ФА Археология институти, 2015. 126-бет.]).



12-rasm. Qo'shazor qabristonining "Google map" dasturidagi xaritada joylashuvi.



13-rasm. Qo‘shazor qabristonidagi qabrtoshlardan biri. Keng yonining ko‘rinishi.



14-rasm. Kattako‘llitepada uchratilgan tegirmontosh.